

MAKEDONYALIK ALEKSANDRNING O'RTA OSIYOGA HARBIY YURISHLARI

Amangeldiyeva Sevinchoy Qaxramon qizi

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy -Iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annatsiya: Ushbu maqola Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari va tarixiy geografiyasi haqida ma'lumot beradi. Makedoniyalik Aleksandrning tuzgan ulkan davlati haqida ham ma'lumot keltiriladi. Makedoniyalik Aleksandrning So'g'd va Baqtriyaga qilgan harbiy yurishlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Kalit So'zlar: Makedoniya, So'g'd, Baqtiriya, Hindiston, Gidasp daryosi, Aleksandriya, Esxata, Filipp II, Paleoponnes janggi.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о военных походах Александра Македонского в Среднюю Азию и историческая география. Также приводятся сведения об огромном государстве, которое построил Александр Македонский. Краткий обзор военных походов Александра Македонского в Согд и Приводятся сведения о Бактрии.

Ключевые слова: Македония, Согд, Бактрия, Индия, река Гидасп, Эсхата Александрийская, Филипп II, Палеопоннесская война.

Abstract: This article provides information about the military campaigns of Alexander the Great in Central Asia and the historical geography. It also provides information about the huge state that Alexander the Great built. A brief summary of the military campaigns of Alexander the Great in Sogd and Bactria information is provided.

Key words: Macedonia, Sogd, Bactria, India, Hydaspes River, Eschatasi of Alexandria, Philip II, Paleoponnesian War.

Makedoniya Yunon shahar davlatlaridan kora qoloq edi. Paleoponnes janggi natijasida Makedoniya asta sekin Yunon sivilizatsiyasini o'zlashtira boshlaydi. Miloddan avvalgi 336-yil yozda Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldiriladi. Taxtga esa uning o'gli 20 yoshli Aleksandr o'tiradi.

Aleksandr hayotidagi eng muhim inson — bu uning otasi Filipp II Makedonskiydir. O'z podshohligi uchun qilgan ishlar nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, Filipp Aleksandr dan yaxshiroq shoh edi. Aleksandr dan farqli o'laroq u o'limiga qadar oddiy makedon jangchisiligi qolgan. Filipp Aleksandr kabi ulkan imperiyani egallamagan, ammo shoh sifatida xalqining yaxshi yashashi uchun majburiyatlarini

bajargan. Aleksandr 334 -yilda Eronga yurish boshlaydi; bu bosqinchilik urushi otasi Filipp II davridayoq boshlangan bo'lib, uning o'limi tufayli toxtab qolgan. Aleksandr qo'shinida sarkardalardan Antipatr, Parmenion, Ptolomey Lag va boshqa shuningdek 30 mingga yaqin piyoda jangchi, 5 ming otliq, yengil qurollangan yordamchi otryadlar va 160 kema bolgan. Aleksandr 329-yil Baqtriyani egallagach, satrap Bess, Oke (Ukuz, Amudaryo) dan kechib o'tib, Navtaka (Qashqadaryo vodiysi) ga chekingan. Ammo Bess tezda qo'lga olinib, qatl etilgan. So'ng, Aleksandr Samarqand (Marokanda) ni egallab, Sirdaryo tomon yo'l oladida, u yerda shahar barpo etib, uni Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) deb ataydi. Umuman Aleksandrning O'rta Osiyoga nisbatan bosqinchilik siyosati qattiq qarshilikka uchragan. Ushrushonadagi yettita shahar-qal'a Aleksandrga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bularning ichida eng kattasi — Kiropol bo'lib, Kir II uni boshqa shahar-qal'alarga nisbatan baland devor bilan o'rattirgandi. Uning ichida mahalliy aholining ko'pchilik qismi, eng jangovar jangchilar to'plangandi. Aleksandr shahar atrofiga xandaq qazitirgan, manjaniqlar (devorteshar mashinalar) bilan devorning bir necha yeridan teshik ochib, u yerdan shaharga bostirib kirmoqchi bo'lgan. Bu urinishi natijasiz chiqqach, u harbiy hiyla ishlatib, shahar ichidan o'tgan quruq daryo o'zani orqali o'zining xos jangchilari bilan shaharga kirgan. Kiropol mudofaachilari bilan Aleksandr jangchilari o'rtasida shiddatli jang bo'lgan. Unda Aleksandr boshi va bo'yniga tosh tegib yarador bo'lgan, bir qancha lashkarboshilari (Krater va boshqalar) kamon o'qidan shikastlangan. Makedon qo'shini katta qiyinchilik bilan shaharni egallagan. Shahar mudofaachilari (jami 15 ming) dan 8000 ga yaqini halok bo'lgan, qolgani ichki qo'rg'onga yashiringan, so'ng tashnalikdan qiynalib taslim bo'lgan. Makedon qo'shini qolgan shaharlarni ham shu tariqa qiyinchilik bilan egallagan. Mil.avv.329-yilda Aleksandr 15 kun davomida muz-qorli Hindqush tog'idan o'tib Baqtriyaning yurish qiladida, Gidasp daryosi (Hind d. irmog'i) sohilida katta qiyinchilik bilan podsho Por qo'shini ustidan markazi Baqtra hamda Drapsak va Aorn shaharlarini jangsiz istilo qiladi.

Mil. av. 327-yil yozida Aleksandr so'g'dlik Oropiyani So'g'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi Hindistonga zafar qozonadi. Shu tariqa Aleksandr Panjobni egallab, Gang daryosi vodiysiga yurishni davom ettirmoqchi bo'ladi. Biroq safar va kasallik azobidan holdan toygan qo'shinning ochiqdan-ochiq qarshiligiga duch keladi. Shu bois Aleksandr Gifasis daryosi (Hind d. sharqiy irmog'i) bo'yidan ortga qaytishga majbur bo'ladi. Aleksandr o'z davlatining poytaxti qilib Bobil shahrini tanlagan va shu yerda yangi yurishlarga tayyorgarlik ko'rish asnosida bezgak kasaliga yo'liqib vafot etgan. Aleksandr yurishlari natijasida vujudga kelgan ulkan saltanat hududi Hind d. ryosidan Dunayga qadar cho'zilgan bo'lib, u qadimgi dunyoning eng yirik davlati edi. Lekin mustahkam ichki aloqalari bo'lmagan bu saltanat Aleksandr vafot etgach, tezda parchalanib ketgan va uning hududida bir qancha ellinistik davlatlar vujudga kelgan. Aleksandr harbiy san'at tarixida yirik sarkarda sifatida mashhurdir. Qadim

zamonlardan (mil. av. 200-yil) Aleksandr haqida ko'plab rivoyat, afsona, doston va miniatyuralar yaratilgan. Ular o'rta asr adabiyotiga ham kirib kelgan.

Xulosalar: Aleksandr Makedonskiy — zamonaviy madaniyat kontekstida hozirga qadar murojaat qilib kelinadigan kam sonli antik davr shaxslaridan biridir. Aleksandrning faoliyati ko'p jabhada g'arb davrlarining yangi tarixidagi ayrim lavhalarni yodga soladi. U o'z davriga yarasha katta imperiya vujudga keltirgan yosh hukmdorlardan biri hisoblanadi. U o'zi bosib olgan hududlarda ellinizm madaniyatini olib kiradi. Bu esa o'z navbatida bosib olgan xalqlar orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Olib brogan yurishlari natijasida bosib olgan hududlarda o'zining davlat siyosatidagi boshqaruv tizimini ham o'rnatib ketadi. Bu esa mamlakatni qiyinchiliksiz boshqarishga yordam bergan. Aleksandrning nasfaqsat O'rta Osiyo balki jahon tarixida tutgan o'rni ham beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. R.Rajabov –“Qadimgi Dunyo tarixi” “Fan va Texnologiya “// Toshkent -2009 .276-280 betlar
2. A. Sagdullayev.-“O'zbekiston Tarixi “ //Toshkent (Donishmand Ziyosi).2021.200-202 betlar
3. A.Kabirov – “Qadimgi Sharq tarixi “// Toshkent (Tafakur).2016.276-280 betlar.
4. A. Xolliyev –“ Jahon Tarixi” //“Navzo'z” Toshkent 2018. 205-219 betlar.